

ISSN: 2181-1040  
DOI: 10.26739/2181-1040  
tadqiqot.uz/renaissance



# JCAR

**JOURNAL OF CENTRAL  
ASIAN RENAISSANCE**



VOLUME 7 | **2026**  
ISSUE 1

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖИЛД 7, СОН 1

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE  
VOLUME 7, ISSUE 1



## Бош муҳаррир:

### МАДАЕВА ШАҲНОЗА ОМОНУЛЛАЕВНА

фалсафа фанлари доктори, Мирзо Улуғбек номидаги  
Ўзбекистон Миллий университети профессори (Ўзбекистон)

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

##### ЮСУПОВА ДИЛДОРА ДИЛШАТОВНА

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доценти (Ўзбекистон)

#### Бош муҳаррир ўринбосари:

##### ХОЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (DSc),  
Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доценти (Ўзбекистон)

## МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕСАНСИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА ИЖТИМОЙ-ФАЛСАФИЙ ЖУРНАЛИ ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ

##### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ўзбекистон Миллий университети ректори,  
профессор (Ўзбекистон)

##### ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Ўзбекистон Фанлар академияси, Ўзбекистон Бадий  
академияси академиги, санъатшунослик фанлари  
доктори, профессор (Ўзбекистон)

##### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Индиана университети ЕвроОсиё тадқиқотлари  
маркази профессори, тарих фанлари доктори (АҚШ)

##### ЖЎРАЕВ НАРЗУЛЛА ҚОСИМОВИЧ

ИСФТ профессори, сиёсий фанлар доктори (Ўзбекистон)

##### ИСЛОМОВ ЗОҲИДЖОН МАҲМУДОВИЧ

Ўзбекистон Халқаро ислом академияси профессори,  
филология фанлари доктори (Ўзбекистон)

##### КЛЭР РООСИЕН

Йел университети, фалсафа доктори (PhD) (АҚШ)

##### АНТонио АЛОНСО МАРКОС

Сан Пабло номидаги CEU университети  
профессори (Испания)

##### ШИРИНОВА РАИМА ҲАКИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий  
университети профессори, филология фанлари  
доктори, (Ўзбекистон)

##### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Хофстра университети профессори,  
тарих фанлари доктори (АҚШ)

##### УСМАНОВ ИБРОҲИМ

Ўзбекистон Фанлар академияси Абу Райҳон Беруний  
Номидаги Шарқшунослик институти катта илмий ходими,  
тарих фанлари номзоди, доцент (Ўзбекистон)

##### АҲМЕД МОУССА АБДДАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,  
PhD (Миср Араб Республикаси)

##### МОҲАМЕД АЛИ АБДЕЛВАҲЕД АВАД

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,  
PhD (Миср Араб Республикаси)

##### ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Ал Форобий номидаги Қозоғистон Миллий университети  
профессори, фалсафа фанлари доктори (Қозоғистон)

##### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХЎЖАМҚУЛОВНА

Анджон давлат университети профессори  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

##### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Наманган давлат техника университети профессори,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

##### ҲЕЛАЛ АБДЕЛПРАЗЕК САДЕК АБДЕЛПРАЗЕК

Ўзбекистон халқаро исломшунослик академияси,  
PhD (Миср Араб Республикаси)

##### ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛБАР ИРГАШЕВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
профессор в.б., фалсафа фанлари доктори (Dcs) (Ўзбекистон)

##### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Навий давлат педагогика институти профессори,  
фалсафа фанлари доктори (Ўзбекистон)

##### ДЖЎРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

##### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

Наманган давлат университети профессор в.б, социология  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) (Ўзбекистон)

##### AMIROV AZAMAT ODIL O'G'LI

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi  
O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha  
Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori o'rinbosari  
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

##### ОДИНАЕВА ЗЕБИНИСО ИБРОХИМОВНА

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
доценти, фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

##### ШУКУРОВ АҚМАЛ ШАРОФОВИЧ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети,  
фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)  
(Ўзбекистон)

##### РЎЗИБОЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРОД ҲЎЛИ

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети  
PhD докторанти (Ўзбекистон)

Дизайн—саҳифаловчи: Х.Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Главный редактор:

### МАДАЕВА ШАХНОЗА АМАНУЛЛАЕВНА

Профессор Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека,  
доктор философских наук (Узбекистан)

#### Заместитель главного редактора:

##### ЮСУПОВА ДИЛЬДОРА ДИЛЬШАТОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана имени  
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (DSc)  
по философии (Узбекистан)

#### Заместитель главного редактора:

##### ХОДЖИЕВ ТУНИС НУРКОСИМОВИЧ

Доцент Национального университета Узбекистана имени  
Мирзо Улугбека доктор философских наук (DSc)  
по философии (Узбекистан)

## ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКОГО И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ЖУРНАЛА РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

##### МАДЖИДОВ ИНОМ УРУШЕВИЧ

Ректор Национального университета  
Узбекистана, профессор (Узбекистан)

##### ХАКИМОВ АКБАР АБДУЛЛАЕВИЧ

Академик Академии наук Узбекистана,  
Академии искусств Узбекистана, доктор  
искусствоведения, профессор (Узбекистан)

##### МАРИАННА КАМП РУТЦ

Профессор Центра евроазиатских исследований  
Университета Индианы, доктор исторических наук (США)

##### ДЖУРАЕВ НАРЗУЛЛА КАСИМОВИЧ

Профессор ИСФТ, доктор политических наук (Узбекистан)

##### ИСЛОМОВ ЗОХИДЖОН МАХМУДОВИЧ

Профессор Международной исламской академии  
Узбекистана, доктор филологических наук (Узбекистан)

##### КЛЕР РОСИЕН

Йельский университет, доктор философии PhD (США)

##### АНТонио Алонсо Маркос

Профессор Университета CEU Сан-Пабло (Испания)

##### ШИРИНОВА РАИМА ХАКИМОВНА

Профессор Национального университета  
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,  
доктор филологических наук (Узбекистан)

##### КАРИМОВ ЭЛЁР ЭРИКОВИЧ

Профессор Университета Хофстра,  
доктор исторических наук (США)

##### УСМАНОВ ИБРОХИМ

Старший научный сотрудник Института востоковедения  
имени Абу Райхана Беруни Академии наук Узбекистана,  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

##### АХМЕД МУСА АБДЛАЛЛА СЕИФЕЛДИН

Международная академия исламских исследований  
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

##### МОХАМЕД АЛИ АБДЕЛЬВАХЕД АВАД

Международная академия исламских исследований  
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

##### ГАБИТОВ ТУРСУН ХАФИЗОВИЧ

Профессор Национального университета Казахстана  
имени Аль-Фараби, доктор философских наук (Казахстан)

##### ЮЛДАШЕВА ФАРИДА ХОДЖАМКУЛОВНА

Профессор Андижанского государственного  
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

##### МИРЗАХМЕДОВ АБДИРАШИД МАМАСИДИКОВИЧ

Профессор Наманганского государственного технического  
университета, доктор философских наук (Узбекистан)

##### ХЕЛАЛ АБДЕЛЬРАЗЕК САДЕК АБДЕЛЬРАЗЕК

Международная академия исламских исследований  
Узбекистана, PhD (Арабская Республика Египет)

##### ФАЙЗИХОДЖАЕВА ДИЛЬБАР ИРГАШЕВНА

И.о. профессора Национального университета  
Узбекистана имени Мирзо Улугбека,  
доктор философских наук (DSc) (Узбекистан)

##### САФАРОВА НИГОРА ОЛИМОВНА

Профессор Навоийского государственного педагогического  
института, доктор философских наук (Узбекистан)

##### ЖУРАЕВА НИГОРА АВАЗОВНА

Национальный университет Узбекистана имени  
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)  
по философским наукам (Узбекистан)

##### МИРЗАХМЕДОВ ХУРШИД АБДИРАШИДОВИЧ

И.о. профессора Наманганский государственный университет,  
доктор философских наук (PhD) по социологии (Узбекистан)

##### АМИРОВ АЗАМАТ ОДИЛ УГЛИ

заместитель директора координационно-методического  
центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при  
Академии наук Республики Узбекистан, доктор  
философских наук (PhD), доцент

##### ОДИНАЕВА ЗЕБИНСО ИБРОХИМОВНА

Доцент Национального университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)  
по философским наукам (Узбекистан)

##### ШУКУРОВ АКМАЛ ШАРОФОВИЧ

Национальный университет Узбекистана имени  
Мирзо Улугбека, доктор философских наук (PhD)  
по философии (Узбекистан)

##### РЎЗИБОВЕВ ДОСТОНБЕК ДИЛМУРАД ОГЛИ

PhD докторант Национального университета Узбекистана  
имени Мирзо Улугбека (Узбекистан)

Дизайн-верстка: Х. Мирзахмедов

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## Chief Editor:

### MADAEVA SHAKHNOZA AMANULLAEVNA

Professor of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

## Deputy Chief Editor:

### YUSUPOVA DILDORA DILSHATOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named after  
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

## Deputy Chief Editor:

### KHOJIEV TUNIS NURKOSIMOVICH

Docent of National University of Uzbekistan named after  
Mirzo Ulugbek Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

## MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD OF THE SCIENTIFIC-THEORETICAL AND SOCIO-PHILOSOPHICAL JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

### MADJIDOV INOM URUSHEVICH

Rector NUUZ, Professor (Uzbekistan)

### KHAKIMOV AKBAR ABDULLAEVICH

Academy of Sciences of Uzbekistan, Academician  
of the Academy of Arts of Uzbekistan, Doctor of  
Art History, Professor (Uzbekistan)

### MARIANNE KAMP RUTZ

Professor of the Center for Eurasian Studies  
at Indiana University, Doctor of History (USA)

### DJURAEV NARZULLA KASIMOVICH

Professor of the ISFT Institute,  
Doctor of Political Sciences (Uzbekistan)

### ISLAMOV ZOHIDJON MAKHMUDOVICH

Professor of International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Doctor of Philological Sciences (Uzbekistan)

### CLAIRE ROOSIEN

Yale University, PhD (USA)

### ANTONIO ALONSO MARCOS

Professor of the University of CEU  
named after San Pablo (Spain)

### SHIRINOVA RAIMA KHAKIMOVNA

Vice-Rector for International Affairs of the National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philological Sciences, Professor (Uzbekistan)

### KARIMOV ELYOR ERIKOVICH

Professor of the Hofstra University,  
Doctor of Historical Sciences (USA)

### USMANOV IBROHIM

Associate Professor of Abu Rayhon Beruniy Institute  
of Oriental Studies, Academy of Sciences of Uzbekistan,  
Candidate of Historical Sciences (Uzbekistan)

### AHMED MOUSSA ABDALLA SEIFELDIN

International Islamic Academy of Uzbekistan, PhD (Arab Republic of  
Egypt)

### MOHAMED ALI ABDELVAHED AWAD

International Islamic Academy of Uzbekistan,  
PhD (Arab Republic of Egypt)

### GABITOV TURSUN KHAFIZOVICH

Professor of the Al-Farabi Kazakh National University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Kazakhstan)

### YULDASHEVA FARIDA KHOJAMKULOVNA

Professor of Andijan State University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### MIRZAKHMEDOV ABDIRASHID MAMASIDIKOVICH

Professor of the Namangan State Technical University,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### HELAL ABDELRAZEK SADEK ABDELRAZEK

International Islamic Academy of Uzbekistan,  
PhD (Arab Republic of Egypt)

### FAYZIKHODJAYEVA DILBAR IRGASHEVNA

Acting Professor of the National University of  
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### SAFAROVA NIGORA OLIMOVNA

Professor of the Navai State Pedagogical Institute,  
Doctor of Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### JURAEVA NIGORA AVAZOVNA

Docent of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (PhD) (Uzbekistan)

### MIRZAKHMEDOV KHURSHID ABDIRASHIDOVICH

Acting Professor of Namangan State University,  
Doctor of Philosophy (PhD) on Sociological Sciences  
(Uzbekistan)

### AMIROV AZAMAT ODIL UGLI

Deputy Director of the Coordination and Methodological Center for  
the Latest History of Uzbekistan under the Academy of Sciences  
of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in  
Philosophical Sciences, Docent

### ODINAYEVA ZEBINISO IBROKHIMOVNA

Docent of National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy (PhD),  
in Philosophical Sciences (Uzbekistan)

### SHUKUROV AKMAL SHAROFVICH

The National University of Uzbekistan named  
after Mirzo Ulugbek, PhD (Uzbekistan)

### RUZIBOEV DOSTONBEK DILMUROD UGLI

doctoral student of the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek, (Uzbekistan)

Design-pagemaker: Kh.Mirzakhmedov

КОНТАКТ РЕДАКЦИЙ ЖУРНАЛОВ. [WWW.TADQIQOT.UZ](http://WWW.TADQIQOT.UZ)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Norov Toji Omonovich</b> ALISHER NAVOIY FALSAFASIDA IQTISODIY MASALALARINING GUMANISTIK TALQINI.....	7
<b>2. Нилуфар Абдурахмонова Зайнобиддин кизи, Шамсиева Гульшода Аслиддин кизи</b> АНАЛИЗ КОНТЕКСТНО-ЗАВИСИМЫХ ЕДИНИЦ В МАШИННОМ ПЕРЕВОДЕ НА ОСНОВЕ ПАРАЛЛЕЛЬНОГО КОРПУСА (НА ПРИМЕРЕ ПЛАТФОРМЫ PARATRANSLATOR.UZ).....	14
<b>3. Tangirov Nizom Abduraxmonovich, Kadirova Guzal Nuritdinovna</b> OLIM MAMAJON RAHMONOVICH RAHMONOVNING O‘ZBEK TEATR SAN’ATI TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.....	21
<b>4. Амиров Азамат Одил угли</b> СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЕ И КУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДВИЖЕНИЯ ДЖАДИДИЗМА.....	26
<b>5. Ro‘ziboyev Dostonbek Dilmurod o‘g‘li</b> SOVET ORIYENTALIZMI VA TARIXIY XOTIRANING MAFKURAVIY REKONSTRUKSIYASI: SOVET KINOSIDA ALISHER NAVOIY OBRAZINING TALQINI...33	33
<b>6. Israfilov Doston Omonulla o‘g‘li</b> PRINCIPLES FOR DETERMINING INTERLEVEL GRAMMATICAL MINIMUMS IN TEACHING UZBEK TO ENGLISH SPEAKERS.....	41
<b>7. Xo‘jaqulova Munira Islom qizi</b> FALSAFA VA DIN INSON MA’NAVIYATINING ASOSI.....	48
<b>8. Bekchanova Manzura Shuxratovna</b> IGNATS GOLDZHERNING “SAHIHI BUXORIY” ASARIGA OID TADQIQOTI.....	60
<b>9. Archabayeva Nargiza Nasimovna</b> LINGVOTEJAMKORLIKNING NUTQIY AKTLAR NAZARIYASI DOIRASIDA PRAGMATIK IFODALANISHI.....	66

МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ  
ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE


ISSN: 2181-1040  
www.tadqiqot.uz

**Bekchanova Manzura Shuxratovna**

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi  
“Islomshunoslik” yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**Ilmiy Rahbar:** “Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o‘rganish ICESCO” kafedrasini dotsenti N.Xakimova

**IGNATS GOLDZIHERNING “SAHIHI BUXORIY” ASARIGA OID TADQIQOTI**

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21007863>

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada G‘arb islomshunosligi namoyandalaridan biri bo‘lgan Ignats Goldziherning Imom Buxoriyning «Sahih al-Buxoriy» asariga bag‘ishlangan tadqiqotlari tahlil qilingan. Maqolada Ignats Goldziherning hayoti, ilmiy faoliyati va uning “Muhammadiyah tadqiqotlar” («Muhammedanische Studien») asarida bayon qilingan hadisshunoslikka oid qarashlari tahlil etilgan. Muallif hadislarni faqat diniy manba sifatida emas, balki ilk islom jamiyatining intellektual, huquqiy va ijtimoiy taraqqiyotini aks ettiruvchi tarixiy hujjat sifatida baholaydi. Shu nuqtayi nazardan, u Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih to‘plamlari qanday qilib musulmon ulamolari tomonidan eng ishonchli manbalar sifatida e’tirof etilganini tarixiy va ijtimoiy jarayonlar bilan bog‘liq holda tushuntiradi. Maqolada Goldziherning «Sihohi sitta»sining shakllanishi, hadis to‘plamlarining tasniflanishi hamda ularning musulmon jamiyatidagi nufuzi haqidagi qarashlari keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada Goldziherning ba’zi hadis to‘plamlarining nima sababdan eng ishonchli manbalar qatoriga kirmaganligi haqidagi mulohazalari ham tahlil qilingan. Tadqiqotda Goldziherning Sahih al-Buxoriyga bo‘lgan munosabati faqat hadislarning ishonchlilik darajasini baholash bilan cheklanmagani, balki ushbu asarning musulmon jamiyatidagi diniy, huquqiy va madaniy vazifalarini o‘rganishga qaratilgani ko‘rsatib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sahihul Buxoriy, G‘arb manbashunosligi, Ignats Goldziher, ilmiy tadqiqot, e’tirof, sahihlik mezonlari.

**Bekchanova Manzura Shukhratovna**

Second-Year Student of Islamic Studies

International Islamic Academy of Uzbekistan

**Scientific Supervisor:** Associate Professor of the  
“Islamic Studies and Study of Islamic  
Civilization ICESCO” Department N. Khakimova

**IGNAZ GOLDZIHHER’S RESEARCH ON SAHIH AL-BUKHARI**

**ANNOTATION**

This article analyzes the studies of Ignaz Goldziher, one of the prominent representatives of Western Islamic scholarship, devoted to Imam al-Bukhari’s work Sahih al-Bukhari. It examines Goldziher’s life, academic activity, and his views on Hadith studies presented in “Islamic studies” (“Muhammedanische Studien”). Goldziher considers Hadith not only as a religious source but also

as a historical document reflecting the intellectual, legal, and social development of early Islamic society. From this perspective, he explains how the Hadith collections of Imam al-Bukhari and Imam Muslim came to be recognized by Muslim scholars as the most authentic sources, relating this process to broader historical and social developments. The article also highlights Goldziher's views on the formation of the Sihah Sitta (the Six Canonical Hadith Collections), the classification of Hadith compilations, and their authority within Muslim society. Furthermore, it analyzes his observations regarding why certain Hadith collections were not included among the most authoritative sources. The study demonstrates that Goldziher's approach to Sahih al-Bukhari was not limited to evaluating the authenticity of Hadith reports; rather, it also focused on examining the religious, legal, and cultural significance of this work within Muslim society.

**Keywords:** Sahih al-Bukhari, Western source studies, Ignaz Goldziher, scientific research, recognition, criteria of authenticity.

**Бекчанова Манзура Шухратовна**

студентка 2 курса направления «Исламоведение»

Международной исламской академии Узбекистана

**Научный руководитель:** доцент кафедры «Исламоведение и изучение исламской цивилизации ICESCO» Н. Хакимова

## ИССЛЕДОВАНИЕ ИГНАЦА ГОЛЬДЦИЕРА, ПОСВЯЩЁННОЕ «САХИХУ АЛЬ-БУХАРИ»

### АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются исследования одного из представителей западного исламоведения Игнаца Гольдциера, посвящённые труду Имама аль-Бухари «Сахих аль-Бухари». Рассматриваются жизнь и научная деятельность Игнаца Гольдциера, а также его взгляды на хадисоведение, изложенные в работе «Мусульманские исследования» («Muhammedanische Studien»). Учёный рассматривает хадисы не только как религиозный источник, но и как исторический документ, отражающий интеллектуальное, правовое и социальное развитие раннего исламского общества. С этой точки зрения он объясняет, каким образом сборники хадисов Имама аль-Бухари и Имама Муслима были признаны мусульманскими учёными наиболее достоверными источниками, связывая данный процесс с историческими и социальными факторами.

В статье подробно освещаются взгляды Гольдциера на формирование «Сихах ситта» («Шести достоверных сборников хадисов»), классификацию хадисных сборников и их авторитет в мусульманском обществе. Кроме того, анализируются его рассуждения о причинах, по которым некоторые хадисные сборники не вошли в число наиболее авторитетных источников. Показано, что отношение Гольдциера к «Сахих аль-Бухари» не ограничивалось оценкой степени достоверности хадисов, а было направлено также на изучение религиозного, правового и культурного значения данного труда в жизни мусульманского общества.

**Ключевые слова:** «Сахих аль-Бухари», западное источниковедение, Игнац Гольдциер, научное исследование, признание, критерии достоверности.

**Kirish va mavzuning dolzarbligi.** Islom ilmiy merosida hadis to'plamlari, xususan, Imom Buxoriyning Sahih asari alohida va beqiyos o'ringa ega. Qur'ondan keyin eng ishonchli manba sifatida e'tirof etilgan Sahihul Buxoriy, asrlar davomida musulmon olamida diniy va axloqiy ta'limotning shakllanishida asosiy tayanch vazifasini bajargan. Ushbu asar nafaqat hadislarni jamlagan ilmiy to'plam, balki musulmon jamoasining e'tiqodiy ongida muqaddaslik darajasiga ko'tarilgan manba sifatida ham qadrlanadi. Shu bilan birga, hadis ilmining shakllanish jarayoni va Sahihul Buxoriy "eng ishonchli hadis to'plami" maqomiga ega bo'lishi murakkab tarixiy, ijtimoiy va ilmiy omillar bilan bog'liq jarayon bo'lgan. Dastlabki davrda hadislarni tekshirish, ularning ishonchliligini baholash va tahlil qilish ilmiy amaliyot hisoblangan. Lekin keyingi davrlarda "Sahihul

Buxoriy” va “Sahihul Muslim” kitoblariga nisbatan shakllangan katta hurmat tufayli, hadislarni tanqidiy ko‘rib chiqish imkoniyatlari ancha cheklangan.

Mazkur masala G‘arb islomshunosligida ham katta qiziqish uyg‘otgan bo‘lib, ayniqsa mashhur sharqshunos Ignats Goldziherning tadqiqotlari bu borada muhim burilish yasagan. U Sahihul Buxoriyni faqatgina hadislarning sahihligini tasdiqlovchi manbaa sifatida emas, balki ilk islom jamiyatining intellektual, huquqiy va diniy ehtiyojlarini aks ettiruvchi tarixiy hujjat sifatida tahlil qiladi. Goldziherning yondashuvi hadis to‘plamlarining qanday shakllanganini, Sahihul Buxoriyga nega bu qadar katta hurmat bilan qaralishini va uning musulmon jamiyatidagi o‘rnini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. U Sahihul Buxoriyni faqatgina hadislar jamlangan kitob sifatida emas, balki musulmonlarning diniy hayoti, ilmiy an‘analari va musulmon jamoasining ongida muhim o‘rin tutgan asar sifatida ko‘rsatadi. Shu orqali bu kitobning nega asrlar davomida eng ishonchli manbalardan biri bo‘lib kelayotganini oddiy va aniq tarzda tushuntirib beradi.

**Asosiy qism.** Bir asrdan ortiq vaqt avval nashr etilgan bo‘lishiga qaramay, mashhur sharqshunos Ignats Goldziherning (vaf. 1921) ilmiy merosi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning tadqiqotlari hadis to‘plamlari masalasiga bag‘ishlangan, G‘arb ilmiy muhitidagi eng chuqur, mufassal va ta’sir doirasi keng ishlardan biri bo‘lib qolmoqda. Goldziherning yondashuvi hadislarning shakllanishi, rivoyat an‘analari hamda ularning tarixiy kontekstdagi o‘rnini tahlil qilishda keyingi tadqiqotchilar uchun muhim tahliliy asos vazifasini bajargan [1:10].

Ignats Goldziher Vengriyaning Sekeshfehervar shahrida taqvodor yahudiy oilasida tug‘ilgan. U bolaligidan chet tillarni o‘rganishga iste’dodli bo‘lib, dastlab ibroniy tili va Talmudni, keyinchalik esa Budapesht, Berlin va Leyptsig universitetlarida arab tili hamda boshqa sharq tillarini chuqur o‘rgangan. Uning ilm-fanga qo‘shgan eng muhim hissasi “Muhammadiy tadqiqotlar” (“Muhammedanische Studien”) asari hisoblanadi. Ushbu asarda u hadis to‘plamlarini, jumladan, Imom Buxoriy va Imom Muslimning “Sahih”larini tahlil qiladi. 1873-1874-yillarda u Suriya, Falastin va Misrga ilmiy safar qilgan. Goldziher islomni qabul qilmagan holda Qohiradagi al-Azhar universitetida tahsil olish huquqiga ega bo‘lgan ilk yevropalik olim sifatida tarixda qolgan. Bu davrda u musulmon madaniyati va ilmiy an‘analarini chuqur o‘rganishga muvaffaq bo‘lgan. Goldziher islomni yuksak axloqiy qadriyatlarga asoslangan va yahudiylikka yaqin bo‘lgan monoteistik din sifatida baholagan. U ishlab chiqqan manbalarni tanqidiy tahlil qilish metodlari bugungi kunda ham sharqshunoslikda muhim ilmiy poydevor bo‘lib qolmoqda [6].

Goldziher o‘z faoliyatini katta ishtiyoq bilan boshladi. Uning ma’ruzalari aniq bir tarzda uni nimalar qiziqtirgani va keyinchalik ilmiy asarlarida o‘z ifodasini topgan mavzularni aks ettirar edi. “Talabalar undan islom va uning institutlari, somiy xalqlarning afsonalari, Qur’on tafsirlari, fiqhiy mazhab va firqalar, ibroniy xalqining madaniy tarixi yoki arablar tarixi kabi fanlar bo‘yicha saboq olishdi” [7].

Goldziherning somiy xalqlari tarix va filologiyasi sohasidagi eng katta hissasi shundaki, u arab rivoyatlari, hadis va an‘analari tarixini birinchi bo‘lib tanqidiy tarzda o‘rgangan olimdir. “Bu ayniqsa uning “Muhammadiy tadqiqotlari” asarining 2-jildida yaqqol ko‘rinadi. Uning arab fuqarolik va diniy huquqi haqidagi baholari vaqt o‘tishi bilan tanqid sinovidan o‘tib, o‘z ilmiy qiymatini saqlab qolgan. Shuningdek, Goldziher islom dini doirasida paydo bo‘lgan turli oqimlarni to‘g‘ri va aniq talqin qilib bergan. Qadimgi arab she’riyati bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lgani sababli, u islomdan oldingi arab butparastligi, johiliya davrini tushunishga ham muhim hissa qo‘shgan”[8].

Goldziherning hadisga oid asarlari uning islomshunoslikdagi faoliyatining eng yuksak cho‘qqisi hisoblanadi va bu asarlarning aksariyati bugungi kunda ham o‘z ilmiy ahamiyatini yo‘qotmagan [2:121-122]. U hadisni ilk islom davrining intellektual tarixini o‘rganish uchun boy manba hamda musulmonlarning shaxs sifatida va e’tiqod jamoasi sifatida o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishlarini aks ettiruvchi hujjat sifatida ko‘radi. Darhaqiqat, u hadislarni tahlil qilganda uning yondashuvi skeptik emasligi yaqqol ko‘zga tashlanadi, u manbalarni tanqid ostiga olmaydi, balki ularning mazmunini sodiqlik bilan yetkazadi [3:119].

Uning hadis an‘anasining butun tarixiy qamroviga bo‘lgan qiziqishi hamda hadis to‘plamlari masalasiga alohida e’tibor qaratgani, ushbu tadqiqotni hozirgi kungacha eng foydali manbaga aylantirgan. “Hatto, Goldziher va boshqa yetuk sharqshunos olimlarni muntazam tanqid qiladigan

musulmon mualliflar ham ayrim hadis to'plamlarining qachon rasmiy, eng ishonchli to'plamlar tarkibiga kirganini tushuntirishda unga murojaat qiladilar"[4:73-74]. Bu shundan dalolat beradiki, Goldziher, hadis an'anasini o'rganishda "Islomshunoslik" sohasida o'chmas iz qoldirib, haqiqiy inqilobni amalga oshirgan. Hadis ilmida xususan, sahih an'anasini shakllanishi borasida tadqiqot olib borayotgan har bir izlanuvchi, albatta uning ilmiy merosiga murojat qiladi.

Hadis metodologiyasining Imom Buxoriy va Imom Muslimlarning Sahih asarlari, hamda Termiziy, Abu Dovud, Nasoiy va Ibn Mojaning to'rt Sunaniga bo'linishiga amal qilgan holda, Goldziher ushbu ikki guruhning har biriga alohida bo'lim ajratadi. U to'rt Sunanning taxminan qaysi hududlarda va qaysi davrga kelib "eng ishonchli to'plam" maqomga ega bo'lganini, shuningdek "Olti kitob" (Sihohi sitta) to'plamlari qachon shakllanganini belgilab beradi. Uning ta'kidlashicha, ushbu mo'tabar tanlov asta-sekinlik bilan qaror topgan bo'lib, hijriy VII, melodiy XIII asrga kelib to'liq shakllangan. Shu bilan birga, Mag'rib mintaqasi bilan islom olamining markaziy hududlarida "eng ishonchli to'plam"ni tashkil etuvchi kitoblar borasida turli qarashlar mavjud bo'lganini ham nozik kuzatuv bilan qayd etadi [5:242-242].

Goldziherning hadis to'plamlari metodologiyasining shakllanishini tushunishga qo'shgan muhim hissalaridan tashqari, uning eng teran va e'tiborga molik xulosasi shundaki, hadis to'plamlari bilan bog'liq hali javobsiz qolayotgan jiddiy savollar mavjud. U, ayniqsa, Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih asarlari shakllanishi vaqtini aniqlash masalasida keskinlikni namoyon etib, shunday deydi: "Ikki Sahih bo'yicha jumhurning ijmosi qachon to'liq shakllanganini xronologik aniqlik bilan belgilash imkonsizdir... [5:240]"

Goldziher, shuningdek, eng ishonchli hadis to'plamlariga nima uchun ba'zi to'plamlar kiritilmagan, masalan, Sahih ibn Xuzayma (vaf. 311/923) asari, Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih asarlari bilan bir davrda yozilgan bo'lsa ham, eng ishonchli hadis to'plamlar safidan chiqarib tashlanganini aniqlash nihoyatda qiyinligini qayd etadi [5:239]. Goldziher aynan mana shu holatni hadis to'plamlarining ishonchlilik mezonlari faqatgina texnik yoki ilmiy shartlar bilan emas, balki tarixiy, ijtimoiy va intellektual omillar bilan ham belgilangani ehtimoli bilan izohlaydi.

Ushbu yondashuv orqali Goldziher hadis adabiyotining ma'lum bir davrdan so'ng hadis ilmi doirasida "eng ishonchli" deya tan olingan to'plamlar doirasi mustahkamlanib, keyingi davrlarda yozilgan yoki hatto o'sha davrga yaqin bo'lgan boshqa asarlar bu maqomga ko'tarilmagan. Bu esa, uning fikricha, hadis adabiyotining tarixiy taraqqiyotini faqat ichki ilmiy mezonlar orqali emas, balki kengroq tarixiy jarayonlar doirasida tahlil qilish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Goldziher hadis to'plamlarining funksiyasiga va Imom Buxoriy hamda Imom Muslimning asarlariga bo'lgan hurmat tabiati bilan bog'liq masalalarga ham chuqur e'tibor qaratadi. U hadis to'plamining umumiy maqsadi "huquqiy manbaa sifatida muayyan masala bo'yicha an'anaviy ta'limotni bilib olish" ekanini ta'kidlaydi [5:240]. Bu yondashuvga ko'ra, hadis to'plamlari islom huquqi (fiqh) shakllanish jarayonida asosiy daliliy tayanch vazifasini bajargan. Muayyan masala yuzasidan Payg'ambar (s.a.v.) nomidan rivoyat qilingan xabarlar mavjud bo'lsa, ular huquqiy hukmni asoslashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Goldziher aynan mana shu funksional ehtiyoj hadis to'plamlarining tartibi, boblarga bo'linishi va mavzular bo'yicha tasniflanishiga kuchli ta'sir ko'rsatganini ta'kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan u Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih asarlariga bo'lgan alohida hurmatni ham mutlaq ravishda faqat ularning ilmiy yonadshuvi ustunligi bilan izohlashni yetarli deb hisoblamaydi.

Goldziher Imom Buxoriyning Sahih asari faqatgina ilmiy yoki huquqiy manba bo'lib qolmaganini, balki boshqa muhim vazifalarni ham bajarganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, sahih hadis to'plami diniy marosimlar, ta'lim jarayonlari va jamoat majlislarida o'qilgan, shu orqali u musulmonlar orasida muqaddas va hurmatli asar sifatida qabul qilingan. Shuningdek, u qasamlar Buxoriyning Sahihi ustida ham ichilganini qayd etadi, bunday sharaf odatda faqat Qur'oni karimga taalluqli bo'lgan[5:234]. Goldziher bu holatni hadis to'plamlarining jamiyatdagi o'rni bilan bog'laydi. Uning fikricha, Sahihul Buxoriyga bo'lgan kuchli hurmat musulmonlar orasida diniy manbalar muhimligiga qarab tartib shakllanganini ko'rsatadi. Bu tartibda Qur'on eng muqaddas va asosiy manbaa bo'lib qoladi, Sahihul Buxoriy esa undan keyingi eng ishonchli va eng hurmatli kitob sifatida qabul qilingan.

Shu orqali Goldziher hadis to‘plamlari faqatgina diniy hukmlarni belgilash uchun emas, balki ramziy va an’anaviy ahamiyatga ham ega bo‘lganini ko‘rsatadi. Ya’ni, hadis kitoblari musulmon jamiyatida nafaqat o‘qiladigan va o‘rganiladigan manbaalar, balki hurmat qilinadigan, qadrlanadigan va jamoani birlashtiradigan muhim asarlar bo‘lib xizmat qilgan. Shu sababli, hadis ilmini o‘rganishda faqat hadislarning mazmuniga emas, balki bu kitoblarning jamiyatda qanday qabul qilinganiga e’tibor berish zarur, degan fikr ilgari suriladi.

Goldziherning fikricha, Imom Buxoriy va Imom Muslimning asarlari darrov eng ishonchli hadis to‘plamlari deb qabul qilinmagan. Aksincha, bu maqom vaqt o‘tishi bilan shakllangan [5:222]. U shunday deydi: “Hurmat butun hadis to‘plami hisoblangan asarga (ya’ni, Imom Buxoriyning to‘plamiga) qaratilgan, lekin uning alohida satrlari yoki qismlariga emas [5:247]”. Goldziher shunday xulosaga keladi: “Imom Buxoriy va Imom Muslim jamlagan hadislarga bo‘lgan hurmat hech qachon ushbu to‘plamlarga kiritilgan rivoyat va izohlarni erkin tanqid qilish mumkin emas yoki noo‘rin deb hisoblash darajasiga yetmagan...[5:236-237]”.

Goldziherning bahosi dastlabki davrlar uchun to‘g‘ri va asosli bo‘lgan. Ya’ni, islom tarixining ilk asrlarida hadis to‘plamlariga, jumladan Sahihul Buxoriy va Sahihul Muslimga nisbatan tanqidiy yondashuv mavjud bo‘lgan. O‘sha davr olimlari hadislarni tekshirish, baholash va muhokama qilishni tabiiy ilmiy jarayon deb bilishgan. Mana shu ilmiy bahslarda aniqlangan natijalarga ko‘ra, ayniqsa yangi davr boshlarida, “Sahihayn” deb ataluvchi bu ikki hadis to‘plamini tanqid qilish asta-sekin qabul qilinmaydigan holatga aylandi.

“Goldziherdan keyin islom tarixini ilmiy-akademik tarzda chuqur o‘rganayotgan tadqiqotchilar yoki musulmon jamoasining dastlabki uch asriga oid manbalarni tahlil qilayotgan olimlar Sahih hadis to‘plamlarining tarixiy va ilmiy ahamiyatini muqarrar holatda tan olishmoqda. Chunki bu asarlar nafaqat diniy manba, balki ilk islom jamiyati, tafakkuri va huquqiy tizimini tushinishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi”[1:11].

**Xulosa.** Goldziher hadis to‘plamlarining, jumladan Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih asarlarini mutlaq va darhol qabul qilingan hadis to‘plamlar sifatida emas, balki uzoq tarixiy, ijtimoiy va intellektual jarayonlar natijasida “eng ishonchli” maqomiga ega bo‘lganini ta’kidlaydi. U hadis adabiyotining shakllanishida faqat ilmiy mezonlargina emas, balki fiqhiy ehtiyojlar, jamoaviy amaliyot, hududiy farqlar ham muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, “Olti kitob” (Sihohi sittaa) hadis to‘plamlari asta-sekin qaror topgani va ayrim hadis to‘plamlarining nega ushbu doiraga kiritilmaganiga oid savollar Goldziher yondashuvida muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, Goldziher Sahihul Buxoriy va Sahihul Muslimning musulmon jamiyatidagi o‘rnini faqat ilmiy manba sifatida emas, balki ramziy, marosimiy va ijtimoiy ahamiyatga ega asarlar sifatida ham talqin qiladi. Uning fikricha, bu to‘plamlarga bo‘lgan yuksak hurmat Qur’ondan keyingi eng muhim diniy manba sifatida qabul qilinish jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, hadis kitoblarining jamiyatdagi funksiyasini anglashda muhim kalit vazifasini bajaradi. Eng muhimi, Goldziher dastlabki davrlarda Imom Buxoriy va Imom Muslimning sahih asarlaridagi hadislarga nisbatan tanqidiy yondashuv mavjud bo‘lganini, biroq keyingi davrlarda bu tanqid asta-sekin cheklanib, mutlaq qabul qilish tendensiyasi kuchayganini qayd etadi. Bu xulosa hadis ilmi tarixida ilmiy erkinlik va tanqidiy tafakkur masalasini qayta ko‘rib chiqish zaruratini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Goldziherning tadqiqotlari hadis adabiyotini faqat diniy-ilmiy doira bilan cheklab qolmasdan, uni kengroq tarixiy va madaniy kontekstda tahlil qilish imkonini beradi. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham hadis ilmi, islomshunoslik va manbashunoslik bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar uchun muhim metodologik asos bo‘lib qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brown, Jonathan. The Canonization of al-Bukhari and Muslim. Leiden: Koninklijke Brill NV, 2007.
2. Ignats Goldziher — Yahudiylik, Xristianlik va Islom chorrahasida”, Der Islam 90.2013.
3. Oltin yo‘llar: O‘rta asr va zamonaviy Islomda migratsiya, ziyorat va sayohat, Richmond, Surrey: Curzon Press, 1993.

4. Muḥammad Zubayr Siddiqi, Hadis adabiyoti: uning kelib chiqishi, rivojlanishi va o‘ziga xos xususiyatlari, tahrirchi: Abdal Hakim Murad (Kembrij: Islamic Texts Society, 1993).
5. Ignats Goldziher, Muslim Studies II, tarjima va tahrirchi: S.M. Stern va G.R. Barber (Chikago: Aldine Atherton, 1971).
6. <https://encyclopedia.yivo.org/article/1582> “Goldziher Ignac” Robert Simon. Oxirgi qaralgan sana 02.02.2026
7. <https://goldziheren.mtak.hu/az-egyetemi-oktato/> Oxirgi qaralgan sana: 02.02.2026.
8. <https://www.jewishencyclopedia.com/articles/6776-goldziher-ignats> “Goldziher, Ignats” Isidore Singer, Max Schloessinger. Oxirgi qaralgan sana: 02.02.2026.

# МАРКАЗИЙ ОСИЁ РЕНЕССАНСИ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ РЕНЕССАНСА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ  
JOURNAL OF CENTRAL ASIAN RENAISSANCE

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000